



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2023

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Узакова Зарина КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО-ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
2. Ernazarov Behzod MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
3. Nematova Dilfuza QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI.....	21
4. Kayumov Kaxramon ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
5. Ibragimov Murodjon JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
6. Dulanboeva Oygul G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
8. Ziyayeva Xolida ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
9. Азизова Нодира СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
10. Nodira Alimukhammedova PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
12. Убайдуллаева Р.Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Каюмов Кахрамон

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473383>

ANNOTATSIYA

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda mavjud kichik shaharlarda ishsizlik darajasi qishloqlardagiga nisbatan yuqori ko'rsatgichni namoyon etmoqda. Ayniqsa, aholini uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, ijtimoiy infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat turlarini yo'lga qo'yilishi va boshqaruvdagi muammolar tufayli kichik shaharlarni rivojlantirish ancha qiyin kechmoqda. Ushbu maqolada ham kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish omillari hamda uning o'rganilish tarixiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, kichik shaharlarning atrof-muhit strukturasi, madaniy hayotiga, o'tmishdagi, hozirgi va kelajak avlodlar uchun qoldirilayotgan estetik, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy yoki ma'naviy qadriyatlarga, ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda samarali integratsiya va uning barqaror rivojlantirish masalalarining ijtimoiy ahamiyatini yoritishga harakat qilingan. Mazkur maqolada ushbu muammoga oid adabiyotlar va nazariy qarashlar o'rganilgan hamda sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik shahar, ijtimoiy infratuzilma, globallashuv, integratsiya, tibbiy sug'urta, intellektual xizmat, ijtimoiy siyosat, ratsional faoliyat, yuqori javobgarlik, manzilli ijtimoiy yordam, ijtimoiy kafolatlar, deklarativlik.

Каюмов Кахрамон

Заведующий кафедрой социально-гуманитарных наук Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, доктор философии (PhD) по социологии
e-mail: nqayumov@inbox.ru

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ МАЛЫХ ГОРОДОВ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

Проведенные научные исследования показывают, что уровень безработицы в малых городах нашей страны выше, чем в сельской местности. Развитие малых городов особенно затруднено из-за уровня обеспеченности жильем, социальной инфраструктурой, производством, услугами и проблемами управления. В данной статье рассматриваются

факторы развития социальной инфраструктуры малых городов, а также история ее изучения. В то же время в материале предпринята попытка осветить социальную значимость вопросов эффективной интеграции и устойчивого развития малых городов в экологическую структуру, культурную жизнь, эстетические, исторические, научные, социальные или духовные ценности, оставленные на усмотрение прошлых, настоящих и будущих поколений, в управлении их социальной инфраструктурой. В данной статье изучена литература и теоретические взгляды на данную проблему, а также проведен анализ с социологической точки зрения.

Ключевые слова: малый город, социальная инфраструктура, глобализация, интеграция, медицинское страхование, интеллектуальное обслуживание, социальная политика, рациональное функционирование, высокая ответственность, адресная социальная помощь, социальные гарантии, декларативность.

Kayumov Kahramon

Uzbekistan journalism and Mass Communications
head of the Department of social and humanitarian
Sciences of the University Doctor of philosophy in sociology (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

FACTORS OF DEVELOPMENT OF THE SOCIAL INFRASTRUCTURE OF SMALL TOWNS IN THE CONTEXT OF MODERN DEVELOPMENT

ABSTRACT

The conducted scientific research shows that the unemployment rate in small cities in our country is higher than in rural areas. The development of small cities is especially difficult due to the level of provision of housing, social infrastructure, production, services and management problems. This article examines the factors of the development of the social infrastructure of small towns, as well as the history of its study. At the same time, an attempt was made to highlight the social significance of the issues of effective integration and sustainable development of small towns into the ecological structure, cultural life, aesthetic, historical, scientific, social or spiritual values left to the discretion of past, present and future generations in the management of their social infrastructure. This article examines the literature and theoretical views on this problem, as well as an analysis from a sociological point of view.

Keywords: small town, social infrastructure, globalization, integration, health insurance, intellectual services, social policy, rational functioning, high responsibility, targeted social assistance, social guarantees, declarativeness.

KIRISH

Bugungi zamonaviy taraqqiyot davrida Yangi O'zbekiston izchil va keng ko'lamli o'zgarishlarni o'z boshidan kechirmoqda. Bu nafaqat jamiyatga balki, uning turli yo'nalish va sohalariga, shu jumladan, kichik shaharlarning ham har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz ijtimoiy voqeligidagi o'zgarishlarning sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan tuman va shaharlar ro'yxatini aniqlash, ushbu tumanlarda aholi bandligi dasturlarining manzilli ro'yxatlari, kichik sanoat zonalari, xizmatlar sohasini rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik va issiqxona xo'jaliklarini barpo etish, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun yangi «startup» loyihalarini amalga oshirishga mikrokreditlar va lizing asosida ishlab chiqarish vositalarini ajratish orqali aholining, ayniqsa, yoshlarning bandligini ta'minlash kabi muammolarni hal etishda mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish tobora dolzarb ahamiyatga ega

bo‘lib bormoqda. Bu o‘z navbatida ayni shu yo‘nalishdagi muammolarni sotsiologik tadqiqotlar doirasida batafsil tadqiq qilish va o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

METODOLOGIYA

Mamlakatimizda mavjud 119 ta shaharning 81 tasi kichik shaharlar toifasiga kiradi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, kichik shaharlarda sodir bo‘lgan barcha dinamik va statik holatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Dunyo miqyosida shu jumladan mamlakatimizda ham kichik shaharlar asosiy savdo bozorlaridan yiroqda bo‘lib, jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada aniqroq his qilish imkonini beradi. Ya‘ni, kichik shaharlardagi tub o‘zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga ta‘sir qilish mana shu omil orqali namoyon bo‘ladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda mavjud kichik shaharlarda ishsizlik darajasi qishloqlardagiga nisbatan yuqori ko‘rsatgichni namoyon etmoqda. Ayniqsa, aholini uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasi, ijtimoiy infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat turlarini yo‘lga qo‘yilishi va boshqaruvdagi muammolar tufayli kichik shaharlarni rivojlantirish ancha qiyin kechmoqda. Bu o‘z navbatida ushbu muammoni ilmiy o‘rganish va tahlil qilish, unga yechim topish kabi vazifalarni sotsiolog olimlarni oldiga qo‘yadi.

ASOSIY QISM

Dastlab mavzuni o‘rganilish tarixiga o‘z e‘tiborimizni qaratamiz. Sotsiologiyaga oid xorijda chop etilgan shahar sotsiologiyasi sohasidagi ilmiy adabiyotlardan ma‘lum bo‘ladiki, infratuzilma tushunchasi XX asr boshlarida birinchi bor harbiy qurolli kuchlarning to‘laonli faoliyat yurgizishi uchun zarur bo‘lgan obyektlar va inshootlar nuqtai-nazardan ishlatilgan. Keyinchalik esa 1940 yillariga kelib esa infratuzilma jamiyatning moddiy ishlab chiqarish sohasiga zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi tarmoq va muassasalarining yaxlit bir tarkibi sifatida tushunilgan.

Kichik shaharlar infratuzilmasida ishlab chiqarish o‘z ichiga aholi va biznesga energiya, yoqilg‘i, suv, ishlab chiqarish qurilmalari, kapital qurilish va ta‘mirlash xizmatlari bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarni qamrab oladi. Bu hududdagi ijtimoiy infratuzilma esa inson salohiyatini (kapitalini) kasbiy ta‘lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish orqali o‘shini ta‘minlashga xizmat qiluvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bizning nazarimizda, ijtimoiy infratuzilma kishilarning maishiy, ma‘naviy, madaniy ehtiyojlarini qondirish orqali uni har tomonlama sotsial rivojlanishga xizmat qiladigan o‘ziga xos tizim hisoblanadi.

Kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasi muammosi XIX-asrning o‘rtalaridan beri ilmiy qiziqish obyekti bo‘lib kelmoqda. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish muammolarini o‘rganish natijalari R.Park, M.Veber, E.Dyurkgeym, P.Sorokin kabi G‘arb sotsiolog olimlari asarlarida keltirilgan [1, 2, 3, 4].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida esa kichik shaharlarining ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish muammolari H.A.Aitov, G.MLappo va boshqa tadqiqotchilar ishlarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu mualliflar kichik shaharlardagi ijtimoiy infratuzilma obyektlarida mavjud muammolarni o‘rganish va ijtimoiy menejment va rejalashtirish metodologiyasini ishlab chiqish va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha amaliy tajribani umumlashtirishga katta hissa qo‘shdilar. Shuningdek, ular Rossiya Federatsiyasi misolida ijtimoiy infratuzilmani inson hayotini farovonlashtirishdagi o‘rni, mehnat, ijtimoiy, madaniy, oilaviy va maishiy faoliyatni tashkil etishning shart-sharoitlari haqida muhim ilmiy-konseptual qarashlarni ilgari surganlar [5, 6].

Bugungi kunda katta yoki o‘rta shaharlar kabi kichik shaharlarga ham ijtimoiy-iqtisodiy tomondan munosib shart-sharoit yaratib berish, mazkur sotsial tipdagi shaharlar uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni joylashtirish uchun qulay investitsiya muhiti hamda shart-sharoitlarni yaratish, yer uchastkalari bozorini shakllantirish, maqsadli moliya mablag‘larini yo‘naltirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, kichik shaharlar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash maqsadida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan, byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan hamda yangi tashkil etilgan urbanizatsiya jamg‘armasi mablag‘laridan, mavjud va tashkil etish ko‘zda tutilayotgan erkin iqtisodiy zonalar, ayniqsa kichik sanoat zonalarini imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shahar hokimliklari mustaqilligi va mas‘uliyatini oshirish, xalqaro standartlar va reytinglar bilan uyg‘unlashtirgan holda shahar aholisi sonining statistik hisobini yuritishni takomillashtirish muhim muammolar sirasiga kiradi. Shu

boisdan ham “Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllantirildi, ma’muriy funksiyalarni nomarkazlashtirish hamda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma’muriy kengashlari vakolatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini boshqarish mexanizmi soddalashtirildi” [7].

Bizning nazarimizda bugungi kunda kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- kichik shaharlar tizimida aholini sog’ligini saqlash maqsadida ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug’urta tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish va bu jarayonda davlat-xususiy aralash modelini joriy qilish ayniqsa xususiy xizmat ko’rsatuvchi tibbiyot muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish, aholini kam ta’minlangan qatlamini davlat tomonidan jiddiy e’tibor qaratilishi e’tiborga molik;

- kichik shaharlar tizimida ijtimoiy siyosatni yanada faollashtirishda inson kapitalini alohida hisobga olish, xususiy xizmat ko’rsatuvchi tadbirkorlar faoliyatini muntazam rag’batlantirib borish, barcha uchun bir xil bepul davlat ta’limini saqlab qolish bilan bir qatorda bu tizimni jahon ta’lim tizimi talablari darajasiga olib chiqish, yuqori malakali ishchi kuchlarini eksport qilish muhim ahamiyatga ega;

- kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirishning intellektual va madaniy omillariga alohida e’tibor qaratish, buning uchun intellektual xizmatlarni jonlantirish, yosh avlodni san’at va ijodga bo’lgan yuqori darajadagi talablarini muntazam hisobga olib ish tutish va bu yo’nalishda mamlakatning milliy brendini shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi;

- kichik shaharlar tizimida ekologiya sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, bu yo’nalishdagi muammolarni bartaraf etishda davlat cheklov choralarini oshirish va aholi e’tiborini ekologiyaga qaratish hisobidan yig’iladigan mablag’larni ratsional yo’l bilan oshirish yo’llarini izlash va tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan harakatlar, turli darajadagi loyihalarni joriy qilish, bu sohaga ham ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni muntazam jalb qilish muhim ahamiyatga ega;

- xalqaro kompaniyalar va mutaxassislarni jalb qilish orqali O’zbekiston kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirish maqsadida innovatsion markazlarni yaratish va rivojlantirish, mavjud infratuzilmani zamonaviylashtirish, kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash, ishlab chiqarish tizimini mahalliyashtirish siyosatini muntazam yo’lga qo’yish, kapital amnistiyasi, soliq islohotlarini amalga oshirish, davlat-xususiy sherikchilikni yangi bosqichga olib chiqish va boshqalar shular jumlasidandir.

Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda uning obyektlarini asrash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda ta’kidlash kerakki, shahar obyektlarini asrash ayrim binolarni saqlab qolish bilan cheklanib qolmaydi. Bunda me’morchilik – shahar muhitini har tomonlama o’z ichiga oladigan elementlardan biri sifatida ko’rib chiqilib, murakkab va ko’pqirrali soha sifatida shakllantirilib boriladi. Demak, shahar obyektlarini saqlab qolish shaharsozlikdagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Kichik shaharlarni paydo bo’lishida qurib bitkazilgan muhit ham muhim o’rinni egallagan. Qurib bitkazilgan muhit – inson faoliyati natijasida vujudga kelgan resurslardan va infrastrukturallardan iborat (tabiiy muhitdan farqli) bo’lib, inson uchun xizmat qilishga mo’ljallangan. Bular: binolar, yo’llar, bog’lar va boshqa madaniy-maishiy obyektlardan iboratdir.

Kichik shaharlarni paydo bo’lishida landshaftli yondashuv muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki, landshaftli yondashuv manzaralar darajasida obyektlarni saqlash bo’yicha qarorlar qabul qilish uchun harakat maydonini aniqlashga xizmat qilgan. Landshaftli yondashuv aniq harakatlarning maqsadga muvofiqligi to’g’risida qaror chiqarishga hamda rejalashtirishni yengillashtirishga, muzokaralar o’tkazishga va butun landshaft doirasida tadbirlarni bajarishga (masalan, yangi yo’l qurish yoki ko’chatlar ekishga) ko’maklashadi.

Kichik shaharlarni rivojlanishida atrof-muhit strukturasi ham hisobga olingan. Odatda atrof-muhit strukturasi deganda obyektning, hudud merosi muhitidagi obyektning ahamiyatiga, ajratuvchi tavsiyanomalarga ta’sir etuvchi, shu elementlardan biri hisoblangan, bevosita birikkan va kengaytirilgan muhit e’tiborga olinadi.

Kichik shaharlarni rivojlanishida madaniy hayot muhim o'rinni egallagan. Madaniy hayot deganda o'tmishdagi, hozirgi va kelajak avlodlar uchun qoldirilayotgan estetik, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy yoki ma'naviy qadriyatlar tushuniladi. Madaniy hayot bir joyning o'zida, uning tuzilmasida, muhitida, undan foydalanishda, ma'no-mohiyatida, mazmunli aspektlarda, arxivlarda, chigallashgan muhiti joylarda yoki murakkab (bir-biri bilan bog'liq) predmetlarda namoyon bo'ladi. Joylar, ayrim shaxslar va kishilar guruhlari uchun turli qiymatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining yarmidan ko'pi shaharlarda yashaydi. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish jarayonini samarali tashkil etishda innovatsiya hamda ijod markazlari alohida o'rinni egallaydi. Chunki, shu faoliyat shakllari kichik shahar aholisini ish bilan bandlik va o'qishni ta'minlashga imkoniyat yaratadi, odamlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va orzu-umidlarini amalga oshishiga katta yordam beradi. Biroq sotsiologik nuqtai-nazardan qaraganda, tez va nazorat qilib bo'lmaydigan urbanizatsiya ko'pincha ijtimoiy va hududiy parchalanishga va shaharlar, ularga yaqin qishloq joylarida atrof-muhit sharoitlari sifatining keskin yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Xususan, u qurilishlarning o'ta zichligi, standartlashgan va bir xildagi binolarning mavjudligi, jamoaga tegishli makonlar va madaniy-maishiy obyektlarning yo'qotilishi, nomuvofiq infratuzilma, holdan toydiradigan qashshoqlik, ijtimoiy jihatdan ajralib qolish va iqlim bilan bog'liq bo'lgan ofatlar xavfining ortib borishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kichik shaharlar aholisining daromad darajasi bu hudud farovonligining muhim ko'rsatkichi bo'lib, unga qarab har bir fuqaroning moddiy – ma'naviy hayoti, ilm olish, sog'liqni saqlash, dam olish va boshqa ehtiyojlarni qondirishi mumkinligini aniqlash mumkin bo'ladi. Shunga ko'ra, kichik shaharlar darajasidagi ijtimoiy siyosati bu hududdagi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va kishilar o'rtasidagi munosabatlarning butun kompleksini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan belgilanadi.

Kichik shaharlar infrastrukturasi ijtimoiy soha siyosatini rivojlantirish zarurati asosan quyidagilardan iborat: Birinchidan, jamiyatda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning uzviy va uzluksiz aloqadorligi; ikkinchidan, davlat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy sohaning yirik shaharsozlik, ishlab chiqarish faoliyati bilan o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi kichik shahar aholisining turmush tarzida ham o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi; uchinchidan, kichik shaharlarda ijtimoiy sohaning nisbatan markazlashganligini kuzatishimiz mumkin; to'rtinchidan, agar yirik korxonalar faoliyatdan to'xtasa kichik shaharlarda keskin ijtimoiy muammolarni yuzaga kelishi tabiiy; beshinchidan, kichik shaharlar mahalliy o'z-o'zini boshqarish subyektlari hisoblanmagani uchun ham boshqa katta va o'rta shaharlarga nisbatan huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqomi past darajada namoyon bo'ladi.

Kichik shaharlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, birinchidan, bu tizimda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning chambarchas bog'lanib ketgani. Ishlab chiqarish sohasi qarindosh urug'chilik yoki qo'shnichilik aloqalari bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy soha esa o'z navbatida, ishlab chiqarish aloqalar va munosabatlari bilan bog'liq [8]. Ikkinchidan, kichik shaharlarda hayot faoliyati biror bir yirik korxonalar atrofida shaharcha bunyod bo'lishi bilan bog'liq [9]. Uchinchidan, funksional vazifasiga ko'ra ikki xil turdagi kichik shaharlar bo'ladi: monofunksional hamda ko'p funksiyali shaharlar va qishloq xo'jaligiga va sanoat zonalari mavjud bo'lgan hududlar ularga tutashgan bo'ladi [10]. To'rtinchidan, kichik shaharlar ijtimoiy infrastrukturaning markazlashganligi bilan ajralib turadi, bu esa uni boshqarishni osonlashtiruvchi omil, ayni paytda, uning kamchiligini ham namoyon etuvchi holat hisoblanadi [11]. Beshinchidan, kichik shaharlarda yirik korxonalar faoliyati to'xtatilishi yoki tugatilishi keskin ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqarishi bilan ham xarakterlanadi. Buning natijasida masalan, butun bir shaxtyorlar yoki neftchilar shaharchalari tugatiladi. Bunga Angren yoki Chirchiq shaharlarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bu shaharlarda sobiq ittifoq tarqalgandan so'ng jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz yuz berdi. Bu shaharlarda ishsizlik darajasi qishloqlardagiga nisbatan ancha yuqori. Shuningdek, aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat turlari yo'lga qo'yilishi va boshqaruvdagi muammolar tufayli bu shaharlarda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan bu hududlardagi muammolarni hal etishga alohida e'tibor berilayotganligi bejiz emas. Oltinchidan, ko'pgina kichik shaharlar – tumanga qarovchi

shaharchalar bo‘lib, amalda huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan tobeligicha qolmoqda [12]. Shuningdek, sotsiolog olimlar fikricha, kichik shaharlarda ijtimoiy soha inqiroziga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- aholiga ijtimoiy va madaniy xizmatlar sifati pasayishi;
- moddiy baza, kadrli potensialning buzilishiga olib keluvchi ijtimoiy-madaniy sohalarning moliyalashtirilishidagi nuqsonlar,
- ijtimoiy soha obyektlarining sifati past darajadagi xizmatlarida;
- ijtimoiy sohani kompleks isloh qilishning ilmiy asoslangan maqsadga yo‘naltirilgan siyosati mavjud emasligi;
- davlat tomonidan ijtimoiy sohani qo‘llab quvvatlashning konkret va samarali mexanizmi yaratilmaganligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Kichik shaharlar infratuzilmasini shakllantirishda quyidagi texnologiyalar samarali natijalarga erishishga yordam beradi: kichik shaharlar infratuzilmasini shakllantirishda jamiyatdagi aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammoni hal qilishga qaratilgan siyosat texnologiyasini qo‘llanilishi; kichik shaharlar infratuzilmasini boshqarish va optimallashtirishda funksional diagnostika texnologiyasidan o‘rinli foydalanish; ijtimoiy jihatdan sertifikatlash texnologiyasi; kichik shaharlar infratuzilmasini ijtimoiy jihatdan prognozlash texnologiyasi; maqsadli dasturiy ta‘minot texnologiyasi hamda reenjenering texnologiyasi; aholining mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish va ijtimoiy sheriklik texnologiyasi va boshqalar. Masalan, kichik shaharlar infratuzilmasini shakllantirishda jamiyatdagi aniq ijtimoiy-iqtisodiy muammoni hal qilishga qaratilgan siyosat texnologiyasini qo‘llanilishi ijtimoiy sohani rivojlantirishning dolzarb muammolarini aniqlashda, muammolar ierarxiyasida, asosiy va boshlang‘ich muammolarni ajratishda, ularni hal qilish uchun kuch va resurslarni safarbar etishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham Jahon Banki 2018-yil 20-dekabrda O‘zbekistonning uch shahri Kogon (Buxoro viloyati), Chortoq (Namangan viloyati) va Yangiyo‘lda (Toshkent viloyati) shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, jamoat foydalanishi uchun yangi joylar yaratish, aholi qulayligi uchun transport tizimini yaxshilash va munitsipal xizmatlarni ochish tizimini yaxshilashga \$100 mln ajratgan edi [13].

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda o‘zining rivojlanishdagi yangi bosqichini boshladi. Jamiyatimizning turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar buning yaqqol tasdig‘idir. Jumladan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, boshqaruv, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot, qurilish, ijtimoiy ta‘minot va boshqa sohalardagi amalga oshirilayotgan amaliy ishlarni keltirish mumkin. Shu o‘rinda Prezident Sh.Mirziyoyevni quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Shunday davr boshlandiki, endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi o‘zimiz mas‘ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas‘uliyat bilan bajarishni ta‘minlashdan iborat” [14].

Demak, barchamiz o‘z vazifamizni mas‘uliyat bilan bajarishimiz, vatanimiz taraqqiyotiga sidqidildan o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, kichik shaharlar rivojlanishida har birimizning hissamiz mavjud. Hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;


yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish masalalari qo‘yilgan.

Yuqoridagi vazifalardan ma‘lum bo‘ladiki, amalga oshirish doirasida jahon tajribasini hisobga olgan holda kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirish sur‘atlarini ta‘minlovchi yangi instrumentlar va mexanizmlar yanada kengroq qo‘llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, dunyo miqyosidagi murakkab o‘zgarishlar sharoitida kichik shaharlarining ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish, buning uchun, avvalo jamiyat hayotida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kelib chiqishini oldini olish, aholi turmush darajasini yaxshilash, yer islohoti, uy-joy siyosatini barqarorlashtirish, bu hududlarni transport va

ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta'minlash, ipotekani kreditlash tizimini arzonlashtirish, turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga xorijiy investitsiyalar hamda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish, shu jumladan, kam va o'rta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turar joylarni qurishga yo'naltirilgan davlat siyosatini rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish, mamlakat aholisining urbanizatsiya darajasini 2030 yilga qadar 60 foizga yetkazish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqish" [15] kabi chora-tadbirlar ilgari surilgan edi.

Shu o'rinda keltirilgan sotsiologik tadqiqotimiz natijalaridan keltiramiz (1-rasm).

«Sizningcha kichik shaharlarda yashayotgan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda asosan qaysi yo'nalishlarda amaliy choralarni kuchaytirish lozim?» savoliga qatnashganlarning aksariyat (53,4%) kichik va o'rta biznesni rivojlantirish zarur deb javob bergan. Eng kam (1,3%) respondent esa yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish kerakligini qayd etgan. Demak, kichik shahar aholisining asosiy qismi aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish lozim, deb hisoblaydi. Shu bilan birga ularda yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish borasida bilim, ko'nika va malakani yetishmasligi ham namoyon bo'ldi. Mazkur javoblardan kelib chiqadiki, kichik shaharda yashovchi aholi bilan ushbu masala bo'yicha ko'proq tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borish orqali ma'lumot berish zaruriyatini ko'rsatmoqda.



1-rasm. «Sizningcha kichik shaharlarda yashayotgan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda asosan qaysi yo'nalishlarda amaliy choralarni kuchaytirish lozim?» deb savolga respondentlarning javobi haqida ma'lumot (% hisobida)

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy taraqqiyot sharoitida kichik shaharlar infratuzilmasini yaxshilashda ijtimoiy siyosat tamoyillaridan samarali foydalanish asosan quyidagilar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Birinchidan, ijtimoiy siyosatni yuritishda real va potensial maqsadga muvofiqlikka erishish.

Ikkinchidan, ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional faoliyat, izchillik, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning o'zaro muvofiqligini ta'minlash.

Uchinchidan, joriy va kelajakdagi maqsadlarning izchilligini ta'minlash, ijtimoiy standartlashtirish, sog'lom raqobat, yuqori javobgarlik, tabaqalashtirilgan yondashuv, intellektual resurslar bilan muntazam ta'minlash.

To'rtinchidan, ijtimoiy siyosatni maqsadli, manzilli ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yo'naltirish, pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi muvozanat, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy kafolatlar, shuningdek deklarativlik tamoyilini ustuvorligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Парк Р. Город как социальная лаборатория // Социологическая теория: история, современность, перспективы. С-ПБ: «Владимир Даль», 2008. – С. 31.
2. Вебер М. Город// Избранное. Образ общества.: Пер. с нем. М.: Юрист, 1994.- С. 309-446.
3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда / пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. М.: Канон, 1996. — 332 с.
4. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: Политиздат, 1992.-С. 295-424.
5. Аитов Н.А., Говако Б.И., Игебаева Ф.А. Город. Население. Трудовые ресурсы. — Уфа: Башкирское книжное изд-во, 1982. — 176 — 144 с.
6. Лаппо Г.М. Проблемы малых городов. — В сб.: Народонаселение и экономика. — М.: Экономика, 1967.- с. 170-186.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.12.2018 йилдаги “Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5600- сонли Фармони.
8. Бабалова А.В. Обратная связь в системе местного самоуправления малого города : диссертация ... кандидата социологических наук. — Москва, 2002. — 171 с.
9. Кривова Д.А. Управление социальной инфраструктурой в малых городах : автореферат дис. ... кандидата социологических наук. — Екатеринбург, 2013. — 26 с.
10. Свистунова Е.А. Социальная сфера малого города как объект управленческой деятельности : диссертация ... кандидата социологических наук. — Москва, 2004. — 223 с.
11. Тухбатуллин Д.Г. Образ жизни населения как основной критерий социального развития малого города: диссертация кандидат социологических наук. — Уфа, 2003. — 130 с.
12. Снедков А.В. Управление социальным развитием малых городов на основе комплексного социального планирования : автореферат дис. кандидат социологических наук. — Орел, 2009. — 19 с.
13. Григорьева А.В. Специфика управления развитием малых городов России в условиях государственных и глобальных вызовов : диссертация ... кандидата социологических наук. — Ростов-на-Дону, 2017. — 158 с.
14. <https://zamin.uz/uzbekiston/62073-jahon-banki-yangiyul-kogon-va-chortoq-shaharlarini-ekoshaharga-aylantirish-loyihasiga-100-mln-dollar-ajratadi.html>.
15. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017 йил 14 январь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 104-б.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000